

## PARAZITOLOGIYANING MAZMUNI. NAZARIY VA AMALIY MUAMMOLARI.

**Mahammadjon Holiqov**  
**Bekchonova Marhabo**  
*Farg'ona davlat universiteti.*

**Annatsiya:** *Parazitologiya barcha parazitlarni o'rganadigan fanidir. . Bu o'z tarkibiga parazit va shartli parazit organizmlarni, erkin harakatlanuvchi avlodlar umumlashmasini shuningdek gostal sistemalar yoki simbiosferani kiritadi. Uning vazifasiga ko'rsatilgan sistemalarni o'rganish, ularning strukturalarini, aloqalarini, komponentlarini o'zaro tavsiflarini ,ularni shakllanish qonuniyatlarini, funksiyalanishini, evolutsiyasini nazariy va boshqarish metodlari kiritiladi.*

**Kalit so'zlar:** *Parazitologiya, ekoparazitlar, fitopatologik, biotsenologik, gostal, simbiosfera, evolyutsiya, populyatsion, sinekologiya, biogeotsenologiya, simbioz, virusologiya, bakteriologiya, mikologiya, protozoologiya, gelmintologiya.*

**Abstract:** *Parasitology is a science that studies all parasites. . It includes parasitic and conditionally parasitic organisms, aggregates of free-moving generations as well as host systems or symbiospherics. Its task includes the study of the specified systems, the mutual description of their structures, connections, components, the laws of their formation, functioning, evolution, and theoretical and management methods.*

**Key words:** *Parasitology, ecoparasites, phytopathological, biocenological, hostal, symbiosphere, evolution, population, synecology, biogeocenology, symbiosis, virology, bacteriology, mycology, protozoology, helminthology.*

Parazitologiya ekoparazitar sistemalarda bizning fikrimizga nazariy-amaliy, tibbiy veterinar, fitopatologik, biotsenologik fanidir. Bu o'z tarkibiga parazit va shartli parazit organizmlarni, erkin harakatlanuvchi avlodlar umumlashmasini shuningdek gostal sistemalar yoki simbiosferani kiritadi. Uning vazifasiga ko'rsatilgan sistemalarni o'rganish, ularning strukturalarini, aloqalarini, komponentlarini o'zaro tavsiflarini ,ularni shakllanish qonuniyatlarini, funksiyalanishini, evolutsiyasini nazariy va boshqarish metodlari kiritiladi. Shuning bilan bir vaqtda populyatsion parazitologiya singari gostal muhit bilan alohida populyatsiyalarini o'zaro munosabatlarini o'rganadi.

Shunday qilib, parazitologiya ekologik parazitologiyaning mustaqil tarmog'i hisoblanib sinekologiya darajasida turadi, o'zining tarkibiga demografik ekologiya va biogeotsenologiyani kiritadi. Biologik fanlarni rivojlanishi natijasida 19 asrning ikkinchi yarmida keng profildagi nazariy ishlar paydo bo'la boshladi. Bular parazitologiyadagi sintetik yo'nalishga yo'l ochib berdi. Bu ishlar qatoriga R.Leykaft va De Barining (kitobdagi) simbioz tushunchasini kiritish mumkin. 1883-yili O.Gertvichning hayvonot olamidagi simbioz va qator ishlari kiritildi. 1920-yillarga kelib ekologik-parazitologik ishlar ancha kuchaydi. Masalan :R.Hegner birinchilardan bo'lib,

bunday tadqiqotlarni muhim xarakterini, ularning ekologik xarakterini tushuntirib berdi. O'zaro parazitlar munosabatlari va aralash infeksiyalardagi muammolarni o'rganish sohasida ilmiy tadqiqotlar amalga oshirildi.

Viruslarni ekologiyasi haqidagi savollar V.A.Pshenichnovaning monografiyasida o'z tasdig'ini topdi. Viruslar ho'jayin hujayrasi bilan o'zaro ta'sirlarini o'rganildi.

Parazitologiyada "Parazitar sistemasi" tushunchasi E. Martini tomonidan fanga kiritildi. U parazit-ho'jayin (2 yoqlama), uch yoqlama (parazit- tashib o'tuvchi-ho'jayin), va ko'pchilikda- parazit- tashib o'tuvchi-bir necha ho'jayin turlari) borligini farqlab berdi.

Tibbiy parazitologiyaning predmeti umumiy parazitologiyaning bo'limi singari o'zining aniq yo'naluvchanligi bilan farqlanadi. Bunda parazit organizmlardagi umumlashgan mikropopulatsiyalarning sog'lom odamlarga ta'siri o'rganiladi.

Tibbiy parazitologiya o'ziga xos bo'lib, virusologiya, bakteriologiya, mikologiya, protozoologiya va gelmintologiya bilan o'zaro aloqa bog'laydi.

Tibbiy parazitologiya qo'zg'atuvchining o'tkazilishi mexanizmini o'rganishda muhim rol o'ynaydi. Parazitlarning o'zaro munosabatida o'tkazilish mexanizmini hamma etaplarida amaliy jihatdan ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Tibbiy parazitologiyaning dastlabki vazifalariga quyidagilar kiradi:

1.Odam organizmiga parazitlar mikropopulatsiyasini o'zaro ta'siri qonuniyatlarini aniqlash va bu o'zaro ta'sirlarning xarakterini ochib berish (sitogonizm, sinergizm).

2.Parazitosenoz bo'g'imi sifatida bu mikropopulatsiyalarining ta'sir etilishini aniqlash, ho'jayin organizmdan ajratishi, tashqi muhitdan kirib kelish sharoitlari va qo'zg'atuvchini har bir turini zararli kasalliklar bilan zararlash mexanizmlarini ifoda etish mumkin.

3.Mikropopulatsiyalarini patogenezga o'zaro ta'sirini aniqlash va klinik aralash infeksiyalarni paydo bo'lishi va invazion kasalliklarni o'rganish.

4.Aralash infeksiyalar va invazion kasalliklarga diagnoz qo'yish va davolash metodlarini ishlab chiqish.

5.Aniq infeksiyon- invazion patologiyada mahsus epidemiologik tadbirlarni ishlab chiqish va boshqalarni kiritish mumkin.

Veterinar parazitosenologiya, parazitosenologiyaning alohida bo'limi hisoblanib, hayvonlarning parazitosenozlarini mikro va mikogostal bo'g'inlarini o'zaro munosabatlari hamda o'zaro ta'sirlarini o'rganishga yo'naltirilgan.

Hayvonlarning infeksiyon-invazion patologiyasida mavjud ancha vaqtlar o'tdi. Qator xavfli kasalliklar Masalan: sibir yazvasi, cho'chqa o'lati va boshqalarni effektiv davolash ishlari amalga oshirildi. Bu kasalliklarni davolashda aniq tashxiz qo'yish metodlari ishlab chiqildi.

Veterinar parazitosenologiyada gnotobiologik metodni qo'llanilishi shuni ko'rsatadiki, mikroorganizmlarning patogenlik xossasi mikroparazitosenoz va mikrobiotsenozlarning strukturalariga bog'liqdir. Salmonella va ichak tayoqchalari

patogenlik xususiyatini organizmda boshqa bakteriyalar mavjudligida namoyish qilishi mumkin.

Organizmda jo`jalar gnotobiotida ular bunday sifatini yo`qotadi. Shunday qilib, aralash infeksiyalarda patogen turlar emas, ularning vakillari ham mikroflora va mikrofaunada o`z ahamiyatga egadir. Ko`plab zooparazitlar lichinkalari organizm to`qimlarida harakatlanib, mikroblar va viruslarni aktiv tarqatadi, yirik shoxli molar diktiakulyozi pasterilliozda murakkablashadi, diktiokulalar pasterellalar uchun qulay sharoit yaratadi va birgalikda og`ir kasalliklarini chiqaradi.

Aralash infeksiyalar A.F. Bilibinaning ma`lumoticha og`ir formada, uzoq, yuqori letallikda davolashda yaxshi natijaga ega bo`lishi bilan xarakterlanadi. Shu yuqoridagi masalalarni e`tiborga olinsa ma`lum ma`noda parazitosenologiyada nazariy va amaliy muammolarni yechilishi biroz osonlanishi mumkin bo`ladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Bilibin A.F. Problema raznozvaniya infeksionnyx zabolevaniy na sovremennom etape- mikrobiol jurnal, 1972, 34 N5 str 59.
2. A.P. Markevich Parazitotsenologiya. Kiyev. Naukova Dumka, 1985 g.
3. Mechnikov I.I. O vnutrikletochnom pishevarenii u kischechno polostnyx, Akad. Sabr sog. M. Gosmediz 1954 t 5 s 9-10.
4. Xmel'niskiy O. K. O differentsialnoy diagnostike glubokix mikofov - Arx. Patologii. 1972, 34 N8 str 312.